



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**“NASOUIM UL-MUHABBAT” ASARIDAGI TIBBIY TERMINLAR
TAHLILI**
**ANALYSIS OF MEDICAL TERMS IN THE WORK “NASUIM UL-
MUHABBAT”**

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/PBDL4568](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/PBDL4568)

Xolmuradova Mushtariy

Associate professor of Tashkent State University
of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi, PhD.

mushtariy.xolmuradova@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5039-1909

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi tibbiy terminlarning leksik-semantik, uslubiy xususiyatlari tahlil etilgan. Mumtoz manbalarda, qomusiy olimlar asarlarida tibbiy terminlarning qo‘llanishi, Alisher Navoiy asarlarida tibbiy terminlarning an‘anaviy ravishda qo‘llanishi, badiiy funksiyalari ko‘rsatilgan. Buyuk mutafakkirning badiiy merosida uchraydigan tibbiyotga oid atamalar o‘ziga xos lingvistik qatlamni tashkil qilib, o‘zbek tilining boyligi hamda tarixiy rivojlanishini namoyon etadi. Navoiy ijodidagi tabib, mijoz, tadu kabi so‘zlar, “Nasoyim ul-muhabbat”da qo‘llangan bemor, bemoriston terminlari nafaqat tibbiy tushunchalarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi, balki mutafakkir qarashlarini, tafakkur olamini aks ettiradi.

“Nasoyim ul-muhabbat” diniy mazmundagi, axloqiy-ta’limiy, falsafiy asar. Asar mazmuni boshdan-oyoq tasavvufiy xarakterda bo‘lib, unda ishlatilgan istilohlar, asosan, ramziy ma’nolarga ega. Asar leksikasidagi tibbiy terminlar turli konnotatsiyalarda ishlatilib, muallif tafakkurini ochib berishga xizmat qilgan.

“Nasoyim ul-muhabbat” leksikasini o‘rganish diniy-axloqiy, ma’rifiy, tasavvufiy istilohlarning mazmun-mohiyatini yoritish bilan bir qatorda tibbiy tushunchalarning mutafakkir qarshlari bilan bog‘liq konseptual ma’nolarini ochib berishda, inson vujudi, ruhiyati, tafakkuri ortasidagi uzviy aloqadorlikni aks ettirishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: tibbiyot, fasavvuf, falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy, shifo, mijoz, tadu, emchi, salomatlik, bemor, bemoriston.

Annotation. This article analyzes the lexical, semantic, and stylistic features of medical terms in the works of Alisher Navoi. It examines the use of medical terms in classical sources and the works of encyclopedists, the traditional use of medical terms in Alisher Navoi's works, and their artistic functions.

The medical terms found in the artistic legacy of the great thinker form a unique linguistic layer demonstrating the richness and historical development of the Uzbek language.



Words such as *tabib*, *kilay*, and *tadu* in Navoi's works, as well as the terms *bemor* and *bemoristan* used in *Nasoyim ul-Muhabbat*, serve not only as a means of expressing medical concepts but also reflect the thinker's views and worldview.

Nasayim ul-Muhabbat is a religious, moral, educational, and philosophical work.

The work's content is mystical from beginning to end, and the terms used have a primarily symbolic meaning. Medical terms are used in various contexts throughout the work, revealing the author's intentions.

The study of the vocabulary of *Nasayim ul-Muhabbat* plays an important role in clarifying the content and essence of religious, moral, pedagogical and mystical terms, as well as in revealing the conceptual meanings of medical concepts related to the intellectual aspects of the human body, psyche and thinking, and in reflecting the inextricable connection between the human body, psyche, and thinking.

Keywords: *medicine, philosophy, philosophical, spiritual and educational, healing, client, treatment, healer, health, patient, patient's country.*

Ma'lumki Sharq tabobati juda qadimiy tarixga ega. Bu tabobatni umumlashtirib, yuqori bosqichga olib chiqqan buyuk alloma Abu Ali ibn Sino bo'ldi. Ibn Sinodan keyin ham tibbiy asarlar yozish davom etdi. Aynan Alisher Navoiy asrida yashagan tabiblar asarlarida odam tanasining turli a'zolariga tasvir berilib, uni to'rt bobga bo'lishgan: suyak, asab, muskullar va qon tomirlari.

Alisher Navoiy asarlarida **mijoz** (arab tilida: مِرَاج (mizāj) fe'li "aralashtirish" ma'nosini bildiradi) tushunchasi ko'p qo'llangan: Tabiatg'a insoniyat tariyqida andom berur va mijozg'a odamiylik manzilida orom yetkurur [Navoiy, 2018, b.63]. Mizāj – dastlab "aralashma", "qorishma", "tabiat", "holat" degan ma'nolarni anglatgan. Klassik tibbiyotda "mijoz" insonning ichki tabiatini, uning issiq-sovuq, quruq-nam kabi xususiyatlar aralashmasidan hosil bo'lgan holatini anglatgan. Shu bois shifokorlar bemorning mijozini aniqlab, shunga muvofiq tarzda muolaja qilishgan.

Alisher Navoiy tabobatning haqiqiy targ'ibotchilaridan biri edi, uning fikricha, kishi hamisha sog'-salomat bo'lishi uchun birinchi galda o'z mijozini bilishi va uni mo'tadil – o'rtacha tutishi lozim. Mijozning buzilishi kasallikni paydo qiladi. Bu o'rinda to'g'ri ovqatlanishni bilish zarurligi, zararli narsalarni yeyish va ichishdan qochish kerakligi, ana shundagina kishi salomat bo'lishini ifodalaydi [Burxonova, 2025]. Shunga yaqin fikrlarni Yusuf Xos Hojibda ham uchratish mumkin. Yusuf Xos Hojib insondagi barcha dard tomoqdan kiradi, shuning uchun ham tomoqni, ya'ni nafsni ehtiyot qilish kerak, deydi. Yusuf Xos Hojib mijoz ma'nosini ifodalash uchun **tadu** so'zini qo'llaydi. Uning fikricha, kishi o'z mijozni qandayligini aniq bilishi kerak [Xolmuradova, 2019, b. 86].

Abu Ali ibn Sinoning yozishicha, "unsurlar o'z quvvatlari bilan bir-biriga ta'sir qilishlari natijasida bir kayfiyat vujudga keladi va ana shu kayfiyat mizojdir". Tabobatda to'rt xil – *issiq, sovuq, ho'l va quruq mizoj* bor. Shuningdek, oraliq



mizojlar ham bo‘lib, ular *ho‘l-issiq, ho‘l-sovuq, quruq-issiq, quruq-sovuq*, deb ataladi. Dori-darmonlar ham xuddi shunday mizojlarga ega. Bunday mizojlar “dorilarning tabiati” deyiladi [Ibn Sino, 1993, b. 38].

Alisher Navoiyning ta’kidlashicha, kishi badanida to‘rtta xilt, ya’ni *qon, safro, savdo va balg‘am* bo‘ladi. Shu xiltlardan birortasi oshib ketisa, kishi kasalga chalinishi mumkinligini aytadi.

Alisher Navoiy asarlarida ko‘p o‘rinda “davolovchi shaxs” ma’nosida **tabib** (arabcha طَبِيب (ṭabīb) – “davolovchi, shifokor, hakim”) so‘zini qo‘llangan. Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda “tabib, davolovchi shaxs” ma’nosini anglatadigan **otači** termini ishlatilgan.

Ot so‘zi em bilan birgalikda qo‘llanib, “giyoh, dorivor o‘simlik” tushunchalarini bildirgan. Mahmud Koshg‘ariyda ot so‘zining 1) “o‘t, o‘simlik”; 2) “hayvonlar yeydigan har turli o‘t, xashak”; 3) “dori, davo”; 4) “og‘u, zahar” ma’nolari qayd etilgan [Koshg‘ariy, 1963, b.74].

Tabib o‘z fanining mohir bilimdoni bo‘lmog‘i, bemorlarga mehr-shafqat bilan muomala qilishi lozimligi, donishmandlar so‘ziga rioya qilib, ularga ergashmog‘i, muloyim so‘z va bemor ko‘nglini ko‘taruvchi andishali, xushfe‘l bo‘lmog‘i lozim [Navoiy, 2011]. *Zahr berib bemor o‘lturguvchi tabib, bularning holig‘a mushobehdur va qarib* [Navoiy, 2018, b. 13]. Tajribasiz, chalasavod, nodon tabibni Navoiy jallodga o‘xshatadi. Chalasavod tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir. Jallod qilich bilan o‘ldirsa, nodon tabib zahar bilan azoblaydi. Shubhasiz jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir. Zero, u gunohkorni o‘ldiradi, nodon tabib esa, begunohni hayotdan ko‘z yumishiga sababchi bo‘ladi [Adizova, 2021, b. 184].

Alisher Navoiy tabiblarga nisbatan “**hoziq tabib**” birikmasini qo‘llagan. “Hoziq” so‘zi arabcha “حاذق” (ḥāziq) so‘zidan olingan bo‘lib, “usta, mohir, tajribali, o‘z ishini juda yaxshi biladigan kishi” ma’nolarida qo‘llanadi. Hoziklik – bu chuqur tajriba, mahorat va amaliy bilimni anglatadi. Mohir, tajribali, o‘z ishining ustasi bo‘lgan shifokorlarga nisbatan *hoziq tabib* birikmasi qo‘llangan.

Hoziq tabibi xushgo‘y tan ranjig‘a shifodur,

Omiy-u tund-u badxo‘y el jonig‘a balodur [Navoiy, 2018, b. 23].

Baytning birinchi misrasida Navoiy aytadiki, mohir va xushmuomala tabibning so‘zi ham, muomalasi ham bemorning tanidagi dardga shifo bo‘ladi. Ya’ni, u faqat dori-darmon emas, shirin so‘z va yaxshi munosabat bilan ham bemorni davolaydi. Ikkinchi misrada esa, ilmsiz, qo‘pol, yomon xulqli tabib bemorning joniga balo bo‘ladi – ya’ni bunday tabib nafaqat shifo bermaydi, balki bemorning ahvolini yanada og‘irlashtiradi. Navoiy ushbu baytda tabiblikning ham ilm, ham odob-axloqqa bog‘liq ekanini uqtiradi. Shu bilan birga, shifokorning ilmsizligi va qo‘polligi bemorga balo bo‘lishi haqida ogohlantiradi. Ushbu g‘oya bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan – ya’ni shifokorlar faqat chuqur bilimga ega bo‘lish bilan cheklanmay, bemorga samimiy munosabat ham ko‘rsatishi zarur.



Alisher Navoiy tabiblar va tabobat ilmi haqida ham ko‘plab g‘azal, tuyuq, ruboiy va hikmatlar bitgan. Hirot shahrida o‘z mablag‘i hisobiga “Dorushshifo” davolash uyini bunyod etgan. Unda o‘sha davrda tajribali tabiblar bemorlarni qabul qilib, muolaja bilan shug‘ullangan. Shuningdek, bu yerda ishlayotgan tabiblar vaqti-vaqti bilan Alisher Navoiy tomonidan moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirib turilgan [Adizova, 2022, b.182].

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Luqmoni hakim, Fishog‘ur (Pifagor), Jomosb, Buqrot (Gippokrat), Buqrotis, Suqrot (Sokrat), Aflotun (Platon), Aristotilis (Arastu), Balinos, Jolinus (Galen), Batlimus (Ptolemey) kabi yunon faylasuflari va Sodiq, Buzrugmehr kabi fors hakimlarining, jami o‘n uch nafar olimning tarixi yoritiladi. Har bir hikoyadan keyin an‘anaviy tarzda bir bayt she‘r ilova qilib borilgan [Adizova, 2022, b.182].

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ham tabobatga doir terminlar uchraydi. “Nasoyim ul-muhabbat” arabcha, forsha matnlarni o‘z ichiga olgan, diniy-tasavvufiy mazmundagi falsafiy asar. Asar muqaddima va 770 nafar diniy yo‘nalishdagi ijodkor, mutasavviflarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan tazkira hisoblanadi. Bu manba 35 nafar avliyo ayollarning faoliyatiga oid muhim ma‘lumotlar berilgani bilan ham e‘tiborga molik. Mazkur asar Abdurahmon Jomiyning “Nafohot ul-uns min hazarot il-quds” tazkirasining tarjimasida qaraladi. Ammo shuni ham ta‘kidlash kerakki, Alisher Navoiy bu asar tarjimasiga ijodiy yondashdi. 618 nafar shayx haqidagi ma‘lumotlar 770 nafar shayx haqidagai ma‘lumotlarga qadar boyitildi. Asar mazmuni boyitildi, voqelik Alisher Navoiy qarashlari va talqinlari asosida bayon etildi. “Nasoyim ul-muhabbat” ma‘naviy-ma‘rifiy qiymatga ega asar bo‘lib, unda bugungi kun uchun zarur bo‘lgan ko‘pgina hikmatlar, yo‘riqnomalar, hayot falsafasi va qonuniyati o‘z ifodasini topgan.

“Nasoyim ul-muhabbat” ning qo‘lyozma nusxalari 857 va 5420 raqami bilan O‘zFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Turkiyada asarning tanqidiy matni tayyorlanib, nashr etilgan (Kamol Eraslan, 1996) [www.ziyouz.com].

“Nasoyim ul-muhabbat”da Alisher Navoiyning tibbiyotga, inson salomatligiga doir fikr-mulohazalari o‘z ifodasini topgan.

Jigarimni ishq iloni chaqib oldi. Bu dardimning davosi ham, afsungari ham yo‘q. Uning yolg‘iz tabibi men ko‘ngul qo‘ygan tabibdurkim, afsunim ham, taryokim ham uning qo‘lidadir [Navoiy, 2001, b. 150]. Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobida taryoq “zaharlarga qarshi murakkab dori” sifatida qo‘llangani aytilgan. [Ibn Sino, 1993, b.234]. Bu o‘rinda Navoiy o‘zining oshiqlik darajasini bayon etib, bu dardni ilon zahriga o‘xshatadi. Uning davosi (zaharga qarshi vosita) yo‘qligini aytadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da rasmiy ma‘rifat yozgi yomg‘irga o‘xshatilgan. *U na bemorga shifo beradi va na chanqoqni qondiradi* [Navoiy, 2001, b. 63]. Alisher Navoiyning bu baytlaridan yomg‘irning shifobaxsh xususiyatlariga e‘tibor qaratilganini ko‘rish mumkin. Demak, yomg‘ir suvi orqali qandaydir kasalliklar



davolanganki, buyuk mutafakkir yomg‘ir suvi aslida shifobaxsh bo‘lishiga ishora qilmoqda.

Alisher Navoiy kasalxonani *bemoriston* leksemasi bilan ifodalaydi: *Yigirma ikki qatla bemoristong‘a tushti* [Navoiy, 2001, b. 123]. Bu so‘zdan *-iston* qo‘shimchasining semantik ko‘lami keng bo‘lganini ham anglash mumkin.

Alisher Navoiy *bemor* so‘zini quyidagi ma‘nolarda qo‘llaydi:

1) “xastalik”, “kasallik”, “biron dardga muhtalolik”: *faqr-shifodir, faqrdan boshqasi bemorlikdir*. [Navoiy, 2001, b. 321]. *Faqr*(lik) tasavvufiy tushuncha bo‘lib, ko‘plab kasalliklarga davo sifatida qaralgan;

2) “xasta”, “muhtalo oshiq”: *Ko‘z olma ko‘zumdinki, o‘larmen agar olsang, Bir ko‘z yumub ochquncha bu bemordin ayru*. Ushbu baytda bemorning holati, uning lahzada vafot etishi mumkinligiga ishora qilingan. Ishq dardiga chalingan oshiq holati o‘lar holatga yetgan bemorga qiyoslangan. *Ko‘z yumub ochquncha* iborasi o‘limning tez, qisqa fursatda sodir bo‘lishiga ishora qilmoqda. *Ko‘z yumub ochquncha* hozirda *ko‘z ochib yuguncha* tarzida qo‘llanadi, tartibning buzilishi mantiqiy nomuvofiqlikni yuzaga keltirgan;

3) “mahbuba zulfi”: *Sunbuli zulfi agar oshuftadur ayb etmakim, Gul yuzida yotqan ikki nozanin bemori bor*. Ushbu baytda bemorning doimiy “yotish” holati o‘xshatish asosi bo‘lgan. *Oshuftahol zulfning yuzga yopishib turishi* bemor holati asosida tasvirlangan;

4) “tashvish”: *Har kimda xotun yo‘q-g‘amg‘usorliq yo‘q, har kimda farzand yo‘q- do‘storliq yo‘q, har kimda bular hech qaysi yo‘q- bemorliq yo‘q*. Mazkur baytda, ma‘lum ma‘noda, buyuk mutafakkirning hayot falsafasi o‘z ifodasini topgan. Keltirilgan misralardagi *bemorliq* leksemasining ma‘nosi hozirgi “bosh og‘rig‘i” degan iboraning mazmuniga teng keladi;

5) “ko‘z xumorligi ta‘siridagi oshiq holati”: *Egri boqmoq birla ul ko‘z qatlar etar ushshoqni, go‘yiyo bemorliq qilmish mijozni munharif. Egri boqmoq* iborasi keyingi ijod namunalarida, she‘riyatda *qiya boqmoq/ qiyo boqmoq* birikmasi bilan ifodalanadi. Keyinchalik bu birikma “nozli, g‘amzali qarash” ma‘nosidagi barqaror birikmaga aylangan;

6) “umidsizlik”: *Haddin o‘tti chunki ranju zorlig‘, tori o‘ldi jismig‘a bemorlig‘* [Navoiy, 1983, 265]. Bu baytda ranj-u zorlikning me‘yordan ortiqqligi bemorlikning tanaga sig‘masligi, ya‘ni tananing bemorlikni ko‘tara olmay qolishi jarayonning eng yuqori nuqtaga kelganini aks ettirishga xizmat qilgan.

Alisher Navoiy deyarli barcha asarlarida tibbiy tushunchalardan obrazli tasvir yaratishda foydalangan. “Nasoyim ul-muhabbat”dagi tibbiyotga oid tasvirlar, tibbiy tushunchalar boshqa asarlaridan chuqur falsaqiy mushohadani aks ettirishi, tasavvufiy mazmunga egaligi, muallif tafakkurining badiiy mahsuli sifatida ajralib turadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”ning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish, asardagi tibbiy mulohazalarning, tushunchalarning hayot haqiqatlarini, ijtimoiy munosabatlarni ochib berishdagi o‘rnini yoritish ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyada hamda so‘z qudrati va badiiy ta‘sirchanligini anglashda ahamiyatlidir.



Alisher Navoiy asarlaridagi tibbiy terminlarning chuqur o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi hamda madaniy-ma’rifiy tafakkurni yangi bosqichga olib chiqishga, o‘zbek adabiy tilidagi leksik boylikning tarixiy ildizlarini yanada teranroq anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday tadqiqotlar Alisher Navoiy tilidagi terminologiyaning kelgusi taraqqiyoti va o‘zbek leksikografiyasi rivojining muhim xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari .V kitob, 1993.
2. Adizova N. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari // Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlar hamda istiqbollari. –Buxoro, 2021
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I-IV-tom. –Toshkent: Fan, 1983-1985.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. XVII jild. Nasoyim-ul muhabbat. – Toshkent: Fan, 2001.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. XVI jild. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: Fan, 2000.
6. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 4-jild. –Toshkent, 2011.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –Toshkent, 2018.
8. Burxonova G. Alisher Navoiy faoliyatida tabobat ilmi // Yangi O‘zbekiston. – Toshkent, 2025.
9. DTS – Древнетюркский словарь – Л.: Наука, 1969.
10. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk (nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov). –Toshkent, 1963.
11. Xolmuradova M. Qutadg‘u bilig leksikasi. Filol. f. b. fals. dok. (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019.
12. O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I–V jildlar. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006 – 2008.
13. www.ziyouz.com.
14. <https://slib.uz/oz/article/view?id=2625>
15. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&citation_for_view=oSSeGakAAAAJ:u5HHmVD_uO8C
16. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Iy7hDzQAAAAJ&citation_for_view=Iy7hDzQAAAAJ:bEWYMUwI8FkC



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafro 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774